



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'ZINGSAN VA O'ZING EMASSAN

Abdullayeva Barno Umidullo qizi,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti, Impuls tibbiyot instituti o'qituvchisi

E-mail: abdullayevabarno789@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183338>

Annotatsiya: Bu asarda bayon etilgan voqealar muallifining shaxsiy hayoti bilan bevosita bog'liq holda kechgan bo'lsa ham, o'zida kam gapirib, asosan, otasi Boburshoh va akasi Humoyunshoh hayotidan lavhalar, saroy ayonlariga, amir-u beklarga munosabatlari va ularning shaxsiy fe'l atvorini aks ettiruvchi she'riy misollar keltiradi. Bo'lib o'tgan voqealar asarda to'g'ri baholangan va ularning ishtirokchilariga haqqoniy tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: nozikta'b, she'r, ruboiy, fors, oyna, soya va nuqsonlar, G'arb, Sharq, falsafa.

Annotation: This work, although based on events closely related to the author's personal life, primarily presents poetic examples reflecting scenes from the lives of his father Baburshah and brother Humayunshah, as well as their relationships with court nobles, amirs, and beks, along with their personal traits. The events described in the work are evaluated fairly, and truthful characteristics are provided for the participants.

Keywords: delicate nature, poem, rubai, Persian, mirror, shadow and flaws, West, East, philosophy.

Аннотация: Хотя события, изложенные в этом произведении, тесно связаны с личной жизнью автора, основное внимание уделяется поэтическим примерам, отражающим сцены из жизни его отца Бабуришаха и брата Хумаюнишаха, их отношениям с придворной знатью, эмирами и беками, а также их личным чертам характера. Описанные в произведении события объективно оценены, а участники получили правдивую характеристику.

Ключевые слова: утончённая натура, стих, рубай, фарси, зеркало, тень и недостатки, Запад, Восток, философия.

Kirish. Bobur asos solgan madaniy muhitdan nafas olib voyaga yetgan Gulbadan begim o'z asarida o'zbek tiliga hos ko'plab iboralarni va ayrim xollarda esa mukammal jummalarni keltiradi. Shu bilan bir qatorda asarda hind va urdu tillaridan kirgan iboralar ham uchraydi. Bu hol "Humoyunnoma"ning tarix, adabiyot, til tarixi, etnografiyasini o'rganuvchilar uchun muhim manba ekanidan dalolat beradi. Asar maroq bilan o'qiladi. Ayrim manbalarda Gulbadanbegimning g'azallar bitgani haqida ham ma'lumotlar bor. Ushbu maqolada asarda keltirilgan bir ruboiy tarixiga to'xtaldik. Tarixda yaxshi nom qoldirgan ayollardan biri Gulbadanbegimdir.

Gulbadanbegim Sharqning go'zal ayoli bo'libgina qolmay, balki nazmda ham qalam tebratgan nozikta'b ayoli edi. Lekin uning hamma she'rlari ham yetib kelmagan.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

“Humoyunnoma” asarining muallifi Gulbadanbegim faqat tarixchi emas, balki yaxshigina shoira ham edi va ba’zi manbalarda uning she’rlaridan na’munalar ham berilgan. Masalan, “Marzan ul-g’aroyib” asarida Gulbadanbegimning quyidagi “baytta” keltirilgan.

Har pariro‘e ki u bo oshiqi hud yor nest,

Tu medon ku hech az umr barxurdor nest.

Mazmuni: Har pari ruhsor kim o‘z sevimlisiga,

Aniq bilgilki o‘z umridan mamnun emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Uning qalamiga mansub “Humoyunnoma” nomli tarixiy asar proza shaklida yozilgan bo‘lib, unda muallif ba’zan she’riy namunalardan foydalangan va o‘z fikrlarini tasdiqlash uchun o‘z she’rlarini keltirgan. Gulbadanbegimning o‘ziga xos taqdimot uslubi bo‘lib, u o‘z zamonining ko‘plab fanlari bo‘yicha yaxshi bilimga ega edi, va uning asarida boshqa xronikalardan farqli o‘laroq, tarixiy voqealar yilma-yil tasvirlanmaydi [8.28b].

Yozuvchi va tarixchi bo‘lish bilan birga, Gulbadanbegim fors va turkcha she’rlar yozgan shoiradir, ammo ayrim tarqoq she’rlaridan tashqari, uning hech bir she’ri to‘liq saqlanmagan, Abulqosim Muhtashami Buxoriy o‘zining “Akhtari Tobon” kitobida shahodat berishicha “u ba’zida she’rlar o‘qir edi” deb yozgan va quyidagi misralarni keltirgan:

“ Har pari ki an ba ashaq khud yar nist,

Tu yaqin medon, ki hech as umr bar-khur-dar nist”

Tarjimasi:

Har pari ruhsoriga oshiqi yor yo‘q,

Bilki unga haq yo‘lida murod yo‘q.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu she’r bizgacha ma’lum bo‘lgan “Nishtari ishq” va ayollar haqida xotiralar kitobidan o‘rin olgan, fors tilida yozilgan ikki misra she’ridir, xolos.(28b) A.S. Bevidj xonim Mir Mahdi Shirazi o‘zining Tazkiratu-l-khiratin” (Tazkiratul xirotin) kitobida “no love, no fruit of life”-mazmunida deb keltiradi, izohlaydi [7.76b].

Tadqiqotchi Xolida Oftob ham Gulbadanbegimda she’riy temperament mavjudligini ta’kidlagan va “ u o‘z asarlarini she’riy parchalar, oqib tushgan iboralar va jumlar, she’riy ohang bilan to‘ldirgan, go‘yo bu dono ayol o‘z mahoratini va ustaligini yanada nozik she’riy didni ifodalagan[2.12b] deb yozgan.

Gulbadanbegim Mirzo Hindolning o‘limini oddiy va muloyim tilda ta’riflab bunday yozgan: “Mirzo chuqurdan ikki marta chiqib xujum qildi. Ular huddi shu



XORIYIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ikkilanishda shahid bo'ldilar. Kimningdir shavqatsiz zulmi bu noyob yosh insonni o'ldirganini bilmayman...oh,oh, afsus, afsus, mingmarta....”

Ey daregho, ey daregho, ey daregh,

Oftobam shud nihon dar zeri megh[2.94b].

“Bilolmadimki, qanday berahm zolim bu beozor yigitni zulm tig'i bilan bejon qildi, Koshki u tix yuragimni mening yuragim, yoki Xizr Xojaxonga tekkan bo'lsa, Oh, yuz marta oh va afsus essiz, ming marta essiz. Hayxot, hayxot, ey afsus, Quyoshim bulutlar ostida berkildi.”

Mazkur tarixiy asarning qadimiy nusxasi Britaniya muzeyining OR.N166 raqami ostida saqlanadi va Gulbadan beginning asariga, fors turkcha manbalarni ishlatib ilm ahlini o'ziga jalb qilgan birinchi ingliz sharqshunosi, tarjimon va “Humoyunnoma” ni qayta tiklagan A.S.Beveridge xonim bo'lgan(1842-1929) bo'lgan. Ushbu asar 1901-1902 yillarda ingliz tilida, forscha matn va izohlar bilan birga Londondagi Osiyo qirollik instituti tomonidan chop etilgan.

Bularni xotirga olganimizda turli qit'alarining xalqlari, har xil e'tiqoddagi millatlar, turfa zamin-u zamonlarni “yakqalam” qilib uyushtirishga kamarbasta bo'lib kelayotgan Hazrati Odamning o'ziday ko'hna tarjima janobi oliylariga, zahmatkash mavlono Mutarjimlarga tahsin va tasanno o'qiging keladi kishining! Ana shu tarjimonlar orasida Holland Vitsen, inglizlar Vilyam Erskin, Jon Leyden, Lyukas Vayt King, farang Pave de Kurteyl, Jan Lyui Bakye-Grammon, olmon A.Kayzer, fors Abdurahimxon ibn Bayramxon, Ro'shon Oro Begim, turk Rashit Rahmati Orat, rus Mixail Sal'e, pokistonlik Nasriddin Haydar Ko'ragoniy, Rashit Axtar Nadviy, hind Said Atkor Abbos Rizvon va boshqalarning nomlari bizga yaxshi tanish.

Taxlil va natijalar. Bu jahonshumul tarjimachilik faoliyatining yorug' tomoni. Ammo tarjima ishining ayrim soya va nuqsonli taraflari ham borki, buni yoritish uchun yuqorida keltirilgan parchalarni chuqur o'rganishga to'g'ri keladi. Umumiy tarzda esa bir muammoga ham munosabat bildirib o'taylik. Zahiriddin Muhammad boburning qizi Gulbadan begimning “Humoyunnoma” asarida quyidagi ruboiy va uning tarjimasi keltirilgan:

Dar oina garchi hudnamoiy boshad,

Payvaste z xiyshtan judoiy boshad.

Xudro bemisoli g'ayr didan ajib ast,

In bul'ajibi hamkoi xudoi boshad.

Intavr tarjimasi:

Oynada o'zingni ko'rganing bilan

Bu baribir o'zingdan boshqadir.



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

*O'zingni boshqacha ko'rishing, bu ajabdir,
Lekin bu ajablik (xudoning) qilgan ishidir [5.61].*

Tadqiqotchi yuqoridagi ruboiyni Hamidabonubegimdan keltirgan-Humoyunning Sherxon, Afg'oniston podshohiga qarshi bo'lgan jangida va uning maktubiga javoban yozgan. Ikkinchi bir misol sifatida Gulbadanbegim Mirzo Hindolning o'limi munosabati bilan uning qayg'uli so'zlarini keltiradi[7.p.14].

Humoyun Mirzo qalamiga nisbat berilgan xuddi shu to'rtlik yozuvchi Pirmqul Qodirning "Avlodlar dovoni" romanida ham tilga olingan.

Shu payt Humoyunning o'z ukasi Komrondagi maqtovg'a uchish xislatini, oynaga qarab aldanishiga qiyoslab forscha yozgan ruboyisi benginng yodiga tushdi:

*Dar oyina garchi xudnamoyi boshad,
Payvasta zi xiyshstan judoyi boshad.
Xudro bamisoli g'ayr didan ajibast,
Intavr ajibi ham kori xudoyi boshad.*

Tarjimasi:

*Garchi oynada o'zingni ko'rursen,
Vale ul ko'rganing o'zing emassen.
(ya'ni, surat bilan siyrat orasida farq, judolik bor).
O'zingni o'zganing o'rnida ko'rish ajibdir,
Ammo bu ajiblik ham xudoning ishidir[5.202].*

Komron o'z atrofidagi xudojo'ylarni "bular mening oynam" deb aytgani bejiz emas edi. Bu oyna "Komronni o'zi istaganday o'zgartirib, faqat ko'rkam, jozibador tomonidan ko'rsatishga o'rgangan edi. Atrofidagilar siyratni suratdan ayirib olib, Komronni o'zi to'g'risidagi haqiqatdan butunlay judo qilishga intilishardi. Ana shundagina Komron to'liq ularniki bo'lardi. Ular Komronni Humoyunga qarshi qo'yishdan manfaatdor edilar[5.202].

Mazkur ruboiy Bevidj xonim tarjimasini 145-sahifasida ham keltirilgan.

*Although one's image be shown in the mirror,
It remains always apart from one's self.
It is wonderful to see one's self in another firm,
This marvel will be the work of God.*

Albatta, "Humoyunnoma"da "Boburnoma"ning kuchli ijodiy ta'siri seziladi. Biroq adabiy-ilmiy saviya nuqtai nazaridan Gulbadanbegim o'z asarini otasining sohir qalam bilan tuhfa etgan nodir hazinasi darajasiga ko'tara olmagan.



XORIYIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Izohlari esa ayon. Bundan qat'iy nazar, hayotini, xususan, Bobur Mirzo Hindistonda asoslagan davlatni mustahkamlash yo'lidagi kurashlar tarixini o'rganishda qimmatli manba vazifasini o'taydi[6.37].

Xulosa. Biz in'ikos nazariyasini xorijiy G'arbdan qidirdik. Mana - Sharq. Bu yoqlarda falsafa faqat sharhlanmagan., kuylangan. Birgina ruboiyda bir dunyo ma'no. Oynada o'zingni ko'rib turibsani. Lekin bu o'zingsan va o'zing emassan... in'ikos nazariyasining mohiyati shu. Qilni qirq yorgan mohir rassom ham tasvirga olayotgan kishining aynan ifoda eta olmaydi. "Humoyunnomaning" tarjimalari haqida ham gap shu.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzoyunus, Matluba Gulbadabbegim is the Founder of Oriental Women's Prose Malj Kamoli Khujandi, N3(19) 2019.
2. Sun, Holida. Gulbadanbegim is Daughter of Boburpodshoh. "Iqboliyat" magazine, N6/5(1369).
3. Rajabi, Muhammad Hasan. Famous Iranian and Persian. Speaking Women. Tehran, 1374.
4. Humayun-nama. A memoir of Mughal emperors, babur and Humayun by Gulbadan Begim, translated by Eiji Mano, Tokyo, Heibonusha, 2023
5. P.Qodirov. Avlodlar Dovoni (Akbar), Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1989, 202 bet.
6. R.Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008[6.37].
7. The History of Humayun(Humayun-nama) by Gul-badan Begam. Translated by A.S.Bevridge, London, 1902
8. Gulbadan Begim. Humoyunnoma. "Fan", "Ochun" nashriyoti, Toshkent, 2022.